



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

## **PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL VALUES IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY**

**Author: Mohira Komil qizi Xursandova**

**Scientific Supervisor: Mohigul Xolova**

Termez State Pedagogical Institute Faculty of Pedagogy and Social Sciences

Department of Pedagogy, 4th-Year Student

### **Abstract**

This article analyzes the pedagogical foundations of using national values in the spiritual and moral education of children within the family. It highlights the role of family upbringing in personality development, the essence and significance of national values, and their importance in shaping the spirituality of the younger generation. Furthermore, the study scientifically substantiates effective forms and methods of applying national values in the process of family education.

**Keywords:** Family, spiritual education, moral education, national values, pedagogy, younger generation, well-rounded personality, family environment.

### **Kirish**

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri yosh avlod tarbiyasiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Zero, har bir xalqning kelajagi uning ma’naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan va Vatan ravnaqiga xizmat qiladigan yosh avlodiga bog‘liqdir.

Oila inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institut bo‘lib, shaxsning shakllanishi aynan oilada boshlanadi. Bola ilk axloqiy tushunchalarni, odob qoidalarini va insoniy



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

munosabatlarni oilada o‘rganadi. Shu sababli oilada yaratilgan ma'naviy muhit va tarbiyaviy munosabatlar bolaning keyingi hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O‘zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosi, urf-odatlar, an'analari va milliy qadriyatlari yosh avlodni tarbiyalashning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Asrlar davomida shakllangan bu qadriyatlar xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va ma'naviy tajribasini o‘zida mujassam etgan. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, sabr-qanoat, halollik va vatanparvarlik kabi fazilatlar milliy qadriyatlarning asosini tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlashga qaratilgan.

Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oilaning o‘rni beqiyosdir. Ota-onalar tomonidan milliy qadriyatlar asosida olib borilgan tarbiya bolalarda ijobiy fazilatlar shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, oiladagi sog‘lom muhit, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat bolaning ruhiy hamda ma'naviy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslarini o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari qadim zamonlardan buyon Sharq va G‘arb mutafakkirlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Sharq pedagogik tafakkurida inson kamoloti va axloqiy tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Abu Nasr Forobiy o‘zining "Fozil odamlar shahri" asarida komil insonni tarbiyalash masalasini davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholagan. Uning



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

fikricha, insonda ezgulik, adolat va ma'rifat fazilatlari tarbiya orqali shakllanadi. Abu Ali ibn Sino oilaviy tarbiyaning shaxs kamolotidagi ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Mutafakkir bolaning tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati va namunasi muhim ekanligini qayd etgan. U oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratish bolaning barkamol bo'lib voyaga yetishining muhim sharti ekanligini ko'rsatgan.

Alisher Navoiy asarlarida ham ma'naviyat va axloq masalalari markaziy o'rin egallaydi. U yoshlarni halollik, kamtarlik, saxovat va insonparvarlik ruhida tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Navoiyning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratgan. U o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani "yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasi" deb baholaydi. Bu fikr tarbiyaning inson hayotidagi beqiyos ahamiyatini yaqqol ifodalaydi.

Zamonaviy pedagog olimlar ham oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarini keng tadqiq etganlar. Ularning ilmiy ishlarida milliy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari, oilaviy munosabatlarning bola rivojlanishiga ta'siri hamda ma'naviy tarbiyaning samarali metodlari yoritilgan.

O'zbekistonlik pedagog olimi O. Musurmonova oilani shaxs kamolotining muhim omili sifatida baholab, unda shakllanadigan ma'naviy muhitning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib bergan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilada milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bolalarda ijtimoiy faollik, ma'naviy barqarorlik va milliy g'ururni rivojlantiradi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish zarurligi alohida ta'kidlanmoqda. Chunki milliy qadriyatlar shaxsning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish pedagogik jihatdan samarali va dolzarb yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi.

### **Tadqiqot savollari**

1. Milliy qadriyatlar tarbiyaga qanday ta'sir qiladi?
2. Ota-onalar namunasi qanchalik muhim?

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, pedagogik kuzatish, suhbat va so‘rovnoma metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning samaradorligini aniqlash va ushbu jarayonning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat bo‘ldi.

Tadqiqot davomida respondentlarning fikr-mulohazalari o‘rganildi hamda olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi. Shuningdek, oilaviy tarbiya jarayonida qo‘llanilayotgan milliy qadriyatlarning bolalar xulq-atvori va ma'naviy rivojlanishiga ta'siri kuzatildi.

### *Ishtirokchilar*

Tadqiqotda jami 20 nafar respondent ishtirok etdi. Ulardan 12 nafari ota-onalar, 8 nafari pedagogika yo‘nalishi talabalari bo‘ldi.

Jadval 1

Respondentlarning umumiy tarkibi (n=20)

Ishtirokchilar

Soni

Ota-onalar



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

12

Talabalar

8

Jami

20

Respondentlar ixtiyoriy ravishda tanlab olindi va tadqiqotda anonim tarzda ishtirok etdilar.

*Tadqiqot vositalari*

Tadqiqotda 10 ta savoldan iborat yopiq turdagi so‘rovnoma qo‘llanildi. Savollar Likert shkalasi asosida ishlab chiqildi:

To‘liq qo‘shilaman

Qo‘shilaman

Betarafman

Qo‘shilmayman

Mutlaqo qo‘shilmayman

Savollar oiladagi tarbiya, milliy qadriyatlarining qo‘llanilishi va bolalarning ma'naviy rivojlanishiga qaratildi.

*Tadqiqot jarayoni*

So‘rovnomalar respondentlarga an'anaviy shaklda taqdim etildi. Ishtirokchilarga tadqiqotning maqsadi va vazifalari tushuntirildi. Barcha javoblar maxfiy saqlandi.

Olingan natijalar umumlashtirilib, foiz ko‘rsatkichlari orqali tahlil qilindi.

**Natijalar va muhokama**



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

№	Savollar	To‘liq qo‘shilaman n	Qo‘shilaman	Betar afman	Qo‘shilmayman	Mutlaqo‘shilman
1	Milliy qadriyatlar bolalarda hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.	8	7	3	1	1
2	Oilada urf-odatlariga amal qilish tarbiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.	9	8	2	1	0
3	Bolalar milliy bayramlarda faol ishtirok etishi kerak.	10	6	3	1	0
4	Kattalarga hurmat oilada shakllanadi.	11	6	2	1	0
5	Milliy qadriyatlar bolalarda vatanparvarlik hissini rivojlantiradi.	9	7	3	1	0
6	Ota-onalarning shaxsiy namunasi tarbiyada muhim omildir.	12	5	2	1	0
7	Milliy an'analar ma'naviy kamolotga xizmat qiladi.	8	8	3	1	0
8	Oiladagi sog‘lom muhit axloqiy tarbiyaning asosidir.	11	7	1	1	0
9	Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bugungi kunda ham dolzarbdir.	10	7	2	1	0
10	Milliy qadriyatlar barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.	9	8	2	1	0



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning katta qismi milliy qadriyatlarining bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini yuqori baholagan. Ayniqsa, ota-onalarning shaxsiy namunasi va oiladagi sog‘lom ma‘naviy muhit eng muhim omillar sifatida e‘tirof etilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning 85 foizdan ortig‘i milliy qadriyatlar bolalarda hurmat, vatanparvarlik va mas‘uliyat hissini rivojlantirishini ta‘kidlagan. Shuningdek, oilada milliy urf-odatlariga amal qilinishi bolalarda ijobiy xulq-atvor me‘yorlarining shakllanishiga yordam berishi aniqlandi.

Diagramma 1. Oilada ma‘naviy-axloqiy tarbiyada eng samarali omillar

Ota-onalarning shaxsiy namunasi – 35%

Milliy urf-odat va an‘analari – 25%

Oiladagi ma‘naviy muhit – 20%

Mahalla va jamiyat ta‘siri – 12%

Ta‘lim muassasalari ta‘siri – 8%

Mazkur natijalar ota-onalar faoliyati va oiladagi ma‘naviy muhitning tarbiyadagi ustuvor o‘rnini ko‘rsatadi.

*Natijalar tahlili*

Olingan natijalar oilada bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ota-onalar tomonidan milliy an‘analarga amal qilinishi va bolalarning oilaviy marosimlarda ishtirok etishi ularda ijobiy fazilatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan holatlarga ko‘ra, oilada kitobxonlik muhiti mavjud bo‘lgan, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat tamoyillari ustuvor bo‘lgan oilalarda bolalarning ma‘naviy dunyoqarashi nisbatan yuqori darajada rivojlangan.

Natijalar pedagogik adabiyotlarda keltirilgan ilmiy qarashlar bilan hamohang bo‘lib, oilaning ma‘naviy tarbiyadagi hal qiluvchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Tadqiqot natijalari oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'zni beqiyos ekanligini ko'rsatdi. Oila shaxs tarbiyasining birlamchi muhitidir va unda shakllangan ma'naviy fazilatlar insonning butun hayoti davomida namoyon bo'ladi. Shu sababli bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, milliy o'zlikni anglash va axloqiy mas'uliyat hissini shakllantirishda oilaning o'zni alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida respondentlarning aksariyati milliy qadriyatlar asosida olib borilgan tarbiya bolalarning axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidladilar. Ayniqsa, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehnatsevarlik, sabr-toqat va vatanparvarlik kabi fazilatlar oilada shakllanishi qayd etildi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi va turli madaniyatlarning kirib kelishi yoshlar dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy qadriyatlar yosh avlodning ma'naviy immunitetini mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ota-onalar tomonidan milliy an'analar va urf-odatlarining bolalar ongiga singdirilishi ularning ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari oiladagi sog'lom psixologik muhit va ota-onalarning o'zaro hurmati bolalarning ma'naviy rivojlanishida muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Chunki bola avvalo ota-onasining xatti-harakati va munosabatlarini kuzatib, ularga taqlid qiladi.

Diagramma 2. Milliy qadriyatlar orqali shakllanadigan asosiy fazilatlar

Kattalarga hurmat – 28%

Vatanparvarlik – 24%

Mehnatsevarlik – 18%

Insonparvarlik – 16%



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Mas'uliyatlilik – 14%

Diagramma natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar bolalarda eng avvalo kattalarga hurmat va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Cheklovlar va istiqbollar**

Har qanday ilmiy tadqiqot singari mazkur tadqiqot ham ayrim cheklovlarga ega.

Birinchidan, tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar sonining nisbatan kamligi natijalarni keng miqyosda umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Tadqiqot faqat 20 nafar respondent ishtirokida amalga oshirilganligi sababli, kelgusida respondentlar sonini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchidan, tadqiqot ma'lum hudud doirasida olib borilgan bo‘lib, boshqa hududlarda yashovchi oilalarning qarashlari to‘liq qamrab olinmagan.

Uchinchidan, tadqiqot davomida asosan ota-onalar va pedagogika yo‘nalishi talabalari fikrlari o‘rganildi. Kelgusida maktab o‘quvchilari, pedagoglar va mahalla faollarining fikrlarini ham qamrab olish tadqiqotning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Kelajakda oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘rganish, shuningdek, raqamli muhitning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini tahlil qilish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Oila bolalarning ma'naviy dunyoqarashi, axloqiy fazilatlarini va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy tarbiya maskani hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar asosida olib borilgan tarbiya bolalarda hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi fazilatlarini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari respondentlarning aksariyati milliy qadriyatlarining tarbiyaviy ahamiyatini yuqori baholashlarini ko‘rsatdi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Shuningdek, ota-onalarning shaxsiy namunasi, oiladagi sog‘lom ma'naviy muhit va milliy an'analarga sodiqlik bolalarning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishida muhim omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Shu sababli oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlardan keng foydalanish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish hamda milliy an'analarni yosh avlod ongiga singdirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
- Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
- Ibn Sino A.A. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1981.
- Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
- Musurmonova O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
- Hasanboyev J. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
- Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
- To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2018.
- Yo‘ldoshev J. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
- Qurbonov A. Oila va ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
- O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2016.